

MAHALLA INSTITUTINING BOLA RIVOJLANISHIDAGI ROLI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
1-bosqich talabasi*

*Abdullahayeva Jasmina Bozor qizi,
Abdurashulova Ruxshona Nematullo qizi,
Olponova Risolat Omon qizi*

Annotasiya: Ushbu maqolada bolaning mahallada rivojlanishi uning mahalla orqali tarbiyalanishi, kamolga yetishi uning shu mahallaga nafaqat O‘zbekistonimizga foydasi nafi tegadigan ezgu ishlarni amalga oshiradigan qilib tarbiyalash muhimligi to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: mahalla, institut , oila Konstitutsiya , shaxs aholi, fuqaro qonun an’ana

Kirish. Mahalla instituti bir necha asrlik qadimiylar tarixga ega bo‘lsada, uning huquqiy asoslari yaratilgan va jamiyat boshqaruvida o‘ziga xos vakolatlarga ega bo‘lgan davri -mamlakatimizning mustaqillikka erishgan davri hisoblanadi. Chunki, mustaqil O‘zbekistonning bosh qomusi – Konstitutsiyasining 105-moddasiga mahalla instituti haqida qoidalar kiritilib, uning vakolat muddati belgilab berildi. Konstitutsiyada belgilab berilgan ushbu qoidalar asosida 1993-yil 2-sentyarbda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun bilan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish tartiblari, vakolat doirasi hamda faoliyati sohasidagi munosabatlar tartibga solindi. Umuman olganda, bunday bo‘linish va tushunish ko‘pgina demokratik davlatlarda uchraydi. Etatik va deetatik bo‘lgan ikki tamoyilning birlashuvi ularda jamiyat ishlari va mahalliy institutlarni demokratik boshqaruv shakli sifatida idrok etiladi. Mahallaning hayotimizdagi roli va ahamiyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov takror va takror so‘z yuritganlar:

«Jamiyatimizning muhim o‘ziga xos jihat shundaki, u jamoaviylik, jamoa manfaatlarining birligi, jamoatchilik fikrining ustuvorligiga asoslangan. Shuning uchun jamiyatni demokratlashtirish tizimida uning asosiy tamoyillari, eng avvalo, ijtimoiy adolatni hayotga tatbiq etishda mahalla katta rol o‘ynaydi. Bugungi kunda oilalarning haqiqiy moddiy ahvolini, ularning moddiy va madaniy manfaatlari doirasini yaxshiroq biladigan boshqa tuzilma mavjud emas. Mahalla eng adolatli, xalq ishonchini qozongan yo‘l va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmidir.

U jamiyatimizdagi islohotlarni amalga oshirishda ishonchli asos va samarali vositaga aylanishi lozim” Jumladan, davlat qurilishida barcha bo‘g‘inlar sotsialistik

mafcura asosida yo‘lga qo‘yildi. Imkon darajada hududni uzoq vaqt ushlab turish, mustamlakachilik qoidalarini bosqichma-bosqich kuchaytirish yo‘lidan borildi. Vaholanki, uzoq yuz yilliklar davomida davlatchilikning muhim yutuqlari mavjud edi. Lekin hech bir islohot milliy an’analarga asoslantirilmadi. Buni ming yillik tarixga ega bo‘lgan mahallaga nisbatan e’tiborning Mahalla komissiyalari shahar sovetlariga bo‘ysungan. Shu davrda mahalla komissiyalari bir qator vazifalarni bajarishga mas’ul bo‘lgan. Ular shaharlarning iqtisodiy, xo‘jalik va madaniy ahvoli, aholining yashash tarzi, maishiy holatini yaxshilash vazifasini bajargan. Chunki mahalla komissiyalari aholiga eng yaqin tuzilma sifatida muhim rol bajarar edi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotinqizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2020 yil 18 fevraldagagi PF-5938-son Farmoni hamda «O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» 2020 yil 18 fevraldagagi PQ-4602-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida 1. O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik) huzurida yuridik shaxs tashkil etmagan holda byudjetdantashqari «Obod va xavfsiz mahalla» jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) tashkil etildi. Davlatimiz rahbarining 2018 yildagi farmonlari bilan “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari qabul qilindi va ushbu dasturlar doirasida 5 millionga yaqin yurtdoshimiz yashaydigan 1 ming 200 ta mahalla va qishloqdagi sharoitlar yaxshilandi.

Foydalilanigan adabiyotlar.

- 1.Организация местного самоуправления. - М.: Инфра-пресс, 1988. - С. 38.
- Каримов И.А. Узбекистон иктисодий ислоҳотларни чукурлаштириш йўлида.
- Тошкент. «Узбекистон», 1996.- 175-6.Шадманова С., Ахмедов Т. Маҳалла комиссиялари фаолиятида трансформацио нжараёнлар // Демократлаштиришванисонхуқулари. –№3. – 2014. –Б. 62.
3. Юсупов Э., Юсупов Ў. Оила – маънавият булоғи. –Т., 2003. –Б. 28-29.
4. Каримов И. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёsat, мафкура. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б. 292. Маҳалла: фуқаролар ўзинни ўзи бошқаришнинг ҳукукий асослари (маҳаллалар фаолиятини тартибга солувчи қонун ҳужжатлари тўплами). - Т.: «Маҳалла» хайрия жамғармаси, 2003. - 109-110-66.